

SIYOSIY JARAYONLARDAGI SIYOSIY ISHTIROKNI TA'MINLASHDA SIYOSIY PSIXOLOGIYANING TIZIM ELEMENTI SIFATIDAGI O'RNI

Mardanov Sardorbek Zafar o'g'li

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar
fakulteti Siyosatshunoslik yo'nalishi 2-kurs talabasi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada siyosy jarayonlardagi siyosiy ishtirokni ta'minlashda siyosiy psixologiyaning o'rni, tizim elementi sifatidagi roli va ahamiyati yoritilaldi. Siyosiy ishtirok ta'minlanishida ishtirokchining xulq-atvori va siyosiy ong va madaniyati siyosiy psixologiyada namoyon bo'ladi. Siyosiy ishtirokdagi siyosiy rol faras qilingan funksional burch va vazifa hisoblanadi. Bu ishtirokchining siyosiy xarakterida va ruhatida ko'rindi. Siyosiy psixologiyaning dolzarbliji ham shundadir. Maqolada asosiy e'tibor siyosat subyektlarining maqsadli xatti-harakati asosida uning siyosiy psixologiyasi turishiga qaratiladi. Siyosiy jarayondagi siyosat subyektlarining manfaatlari shu yerda ifodasi aniqlashadi.*

Kalit so'zlar: *siyosiy jarayon, siyosiy ishtirok, siyosiy psixologiya, subyekt xulq-atvori, tizim, siyosiy ong, siyosiy madaniyat, siyosiy institular, siyosiy manfaat, siyosiy tahlil, tizimli tahlil, natija, ratsional tanlov.*

Siyosiy jarayon jamiyat siyosiy tizimi shakllanishi, o'zgarishi va faoliyat ko'rsatishiga bevosita ta'sir etuvchi ijtimoiy subyektlar faoliyatining uyg'unligi hisoblanadi. Siyosiy jarayon manfaatlarni belgilash va muvofiqlashtirish, faoliyat maqsadi va dasturini shakllantirish, siyosiy dasturni muhokama etish va qabul qilish, odamlar ijtimoiy-siyosiy birligining, shaxsning faoliyatida dasturni amalga oshirish, uni ro'yobga chiqarish uchun javobgarlik turlarini belgilash, muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlik bosqichlariga ega. Bunda siyosat ishtirokchilarining siyosiy xulq-atvori yotadi. Siyosiy ishtirok ijtimoiy-siyosiy jamoa a'zolarining ichki siyosiy munosabatlar va hokimyat tarkibiga jalb etilganlidir. Siyosiy ishtirok subyektlariga individlar, ijtimoiy guruhi va qatlamlar kiradi. Siyosiy jarayonlardagi siyosiy ishtirok siyosat subyekt va obyekt o'rtasidagi munosabatlarda siyosiy psixologiya tizim vositasi hisoblanadi. Siyosiy jarayonda siyosiy psixologiya siyosatda jamiyat siyosiy hayotining ruhiyat bilan bog'liq tomonlarida namoyon bo'ladi. Jamiyat siyosiy hayotida esa siyosiy xulq-atvor muhimdir. Siyosiy psixologiyaning muhim shakli ham siyoiy xulq-atvordir. Siyosiy jarayondagi xatti-harakatda, faoliyatda, yo'nalishida asosi siyosiy xulq-atvorga asoslanadi. Siyosiy jarayon ko'p qirrali va murakkab holat. Siyosiy psixologiya shaxsni yoki guruhni siyosiy jarayonga kirish mexanizmi, obyektiv qouniyligi va faktorini ochish, o'rganishni taqazo etadi. Siyosiy ishtirokda siyosiy psixologiya unga yo'naltirib beruvchi tizim elementi hisoblanadi. Bunda siyosiy ong va siyosiy madaniyat subektlarga sababni keltirib chiqaruvchi impulsdir. Siyosiy ong siyosiy borliqning subyekt tomonidan idrok etilishi bo'lib, mavjud siyosiy jarayondagi maqsadli xatti-

harakatlarini aniqlab olishga imkoniyat yaratadi. Ishtirokchining ruhiyati va psixologiyasi bunga atabdatsiya qiladi. Buni taniqli olim Garold Lasuell tomonidam ochib berilgan. Shu o'rinda siyosiy ishtirokning funksiyasi hisoblangan siyosiy ijtimoiylashuv yuzaga keladi. Ya'ni siyosiy ishtirok tufayli shaxs o'zining manfaatlarini jamiyat manfaatlariga moslashtiradi. Siyosiy psixologiya siyosiy jarayonlarda insonlarning davranishlarini, g'oyalarini va qarorlarini tushunish, izohni analiz qilish, va o'zaro munosabatlarni tahlil qilishga yordam beradi. Bu jarayonlarda siyosiy ishtirokni ta'minlashda, insonlarning jamiyatdagi o'rinini tushunish, propagandalarga qarshi tura olish, va rahbarlarga qarshi salbiy oqimlarni tushunish kabi muhim elementlarga ega bo'ladi. Siyosiy psixologiya tizimining bir qismi sifatida, uning asosiy elementlari o'zaro bog'liq va ta'sirchan bo'lib, insonlarning siyosiy jarayonlarda qanday amal qilishini tushunishga yordam beradi. Bu tizim elementlari o'z ichiga siyosiy tasavvur, o'zaro munosabatlar, propagandalarga ta'sir, liderlik va uning turlari, jamiyat tizimi va boshqa siyosiy jarayonlar bilan bog'liq bo'ladi. Bu elementlar siyosiy olaylarni tahlil qilish, insonlarning siyosiy muhitda qanday ta'sir ko'rsatishlari va o'zaro munosabatlarni chuqurroq tushunish uchun muhimdir. Siyosiy xulq atvori mamlakatning davlat tizimida ahamiyatli o'rin egallaydi va davlat boshqaruvini shakllantiradi. Bu o'z ichiga oliy siyosiy o'qitish, hokimiyat organlarining tuzilishi, huquqiy tizim, fuqarolarning boshqaruvga qatnashishi va boshqa ko'plab jarayonlarni o'z ichiga oladi. Bu jarayonda manfaatlar yuzaga keladi. Manfaatlar esa quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi. Siyosiy jarayonlarda siyosiy manfaatlar ko'plikka bog'liq bo'ladi. Ba'zi asosiy siyosiy manfaatlar quyidagilar bo'lishi mumkin:

1. Huquqiy himoya: Siyosiy tizim fuqarolarga huquqiy himoya ta'minlashda muhim rol o'yinaydi.
2. Hokimiyat organlarining faoliyati: Siyosiy tizim hokimiyat organlarini tuzish va ularning faoliyatini nazorat qiladi.
3. Qonun tizimi: Siyosiy jarayonlar qonunlar tizimini shakllantiradi va uning muhofazasini ta'minlaydi.
4. Davlat xizmatlari: Siyosiy tizim arqumentlar orqali davlat xizmatlarini tashkil etadi va boshqaradi.
5. Demokratiya va fuqarolik: Siyosiy jarayonlar demokratik prinsiplarga asoslangan tizimni amalga oshirish orqali fuqarolarning qatnashishi va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlaydi.
6. Himoya va mudofaa: Siyosiy hokimiyat mamlakatni harbiy va siyosiy xavf-yovuzlikdan himoya qiladi.

Bu faktlar har bir mamlakatning siyosiy tizimi va uning jarayonlarining fuqarolar uchun foydali bo'lishini ta'minlaydi. Siyosiy tahlilda siyosiy ishtirok, jamiyatning fuqarolarining siyosiy jarayonlarga qatnashish darajasi va shakli haqida batafsil tushuncha beradi. Bu, saylovlari, jamiyat tashkilotlari, fuqarolik huquqlari, va siyosiy partiyalar o'rtasidagi munosabatlar va interaktiv so'zlashgan tizimlarni tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Siyosiy ishtirok, demokratik jarayonlarda jamiyat a'zolari uchun asosiy

huquq va imkoniyatlarni ta'minlashda muhim bir o'rinni tutadi. Siyosiy tahlilda siyosiy ishtirok, jamiyatning fuqarolarining siyosiy jarayonlarga qatnashish darajasi va shakli haqida batafsил tushuncha beradi. Bu, saylovlari, jamiyat tashkilotlari, fuqarolik huquqlari, va siyosiy partiyalar o'rtasidagi munosabatlar va interaktiv so'zlashgan tizimlarni tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Siyosiy ishtirok, demokratik jarayonlarda jamiyat a'zolari uchun asosiy huquq va imkoniyatlarni ta'minlashda muhim bir o'rinni tutadi. Siyosiy ishtirokning ta'minlanishi, jamiyat a'zolarining siyosiy jarayonlarda faol qatnashish, o'z fikrini bayon etish, va saylovlari orqali hukumatni tanlash imkoniyatini o'z ichiga oladi. Bu, demokratik tizimlarda jamiyat a'zolarining siyosiy vazifalarni o'zlarining xohishlari va qoniqtirishlari asosida bajarishi aniqdirdi.

Siyosiy ishtirokni ta'minlashda keyingi muhim qadamlar shu bo'lib, siyosiy tashkilotlar, partiyalar va jamiyat tashkilotlari tomonidan saylov huquqlarini muhofaza etish, adolatli saylov tizimi va tashkilotlarning faol ishtirokini ta'minlash, shuningdek, fuqarolarning siyosiy tayanchlari va huquqiy imkoniyatlarni himoya qilishni o'z ichiga oladi.

Xulosa, siyosiy jarayonlarda siyosiy ishtirokni ta'minlanishi uchun siyosiy psixologiya siyosat ishtirokchilariga shart-sharoit omilini yaratib beradi. Shu o'rinda siyosat subyektlarining xulq-atvor qoidalari shakllanadi. Siyosiy jarayonning elementi hisoblangan siyosat subyektini shu orqali shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Siyosatshunoslik fanidan atamalar lug'ati" Mirzaaxmedov Kamoliddin. Toshkent-2020
2. "Siyosatshunoslik" Muqimjon Qirg'izboyev. Toshkent. Yangi asr avlod 2013
3. "Siyosatshunoslikka kirish" Biturayev O'. Toshkent-2017
4. "Siyosiy psixologiya" M.A.Maxsudova, Z.Kurbanova, Y.Jumanazarov. Namangan-2007
5. Beron E. Igri v kotorie igrayut lyudi. M. «Sovershenstvo», 1999
6. Gozman Л.Я., Shestopal Ye.B. Politicheskaya psixologiya. Rostov na D. «Feniks», 1996.
7. Lebom G. Psixologiya narodov i mass. SPb. «Maket», 1995.
8. Stefanenko T., Etnopsixologiya. M. Akademicheskiy proyekt. 1999
9. Merlin V.S. Struktura lichnosti. Xarakter, sposobnosti, samosaznaniye.- Perm, 1990.
10. Razumovskiy B.G. Razvitiye tvorcheskix sposobnostey uchashixsy. - M., 1975.
11. Faniiev E. Oliy maktab psixologiyasi. -T., —O'qituvchi|| nashr. 1997.
12. Merlin V.S. Ocherk individualnogo issledovaniya individualnosti. -M. 1986.

-
- 13. Практическая psixodiagnostika. Metodika i testi. - М., 1999.
 - 14. Немов R.S. Psixologiya. - V 2-х kn.1.-М., 1998.
 - 15. Psixologiya. Uchebnik. -Pod red. A. Kralova. -М., 1998.
 - 16. Андреева G. M. Sotsialnaya psixologiya. Uchebnik .- М. Aspekt press, 1999